O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI

MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF MEDICINE

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2

2. Farobiy str. Tashkent 100109

Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz, tta@exat.uz

19 mart 2026 yil. **5369-son**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi yig‘ilishining 8-son BAYONI

Toshkent shahar 2026-yil «26» fevral

Raislik qiluvchi: **Sh.A. Boymuradov** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori, t.f.d., professor

Qatnashdilar: Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

1. Universitetda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti faoliyati tahlili.

Ma’ruzachi – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L. Azizova.

2. Oftalmologiya kafedrasining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy faoliyati bo‘yicha hisoboti.

Ma’ruzachi – Oftalmologiya kafedrasi mudiri Bilalov Erkin Nazimovich.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma’ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachi – O‘quv-metodik ta’minot bulimi boshlig‘i Anvarov Jaxongir Abralovich, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ilmiy kengash boshida rektor Sh.A.Boymuradov 2026-yil 24-fevral kuni Ko‘ksaroy qarorgohida bo‘lib o‘tgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarga

bag‘ishlangan muloqotidagi Prezident Murojaatnomasining mazmun va mohiyati haqida kengash a’zolarini tanishtirdi, va ushbu ma’lumot axborot va ijro uchun qabul qilindi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Universitetda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti faoliyati tahlili” mavzusi bo‘yicha Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Feruza Lutpillayevna Azizovaning ma’lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1. Universitet professor-o‘qituvchilarning davlat va xorijiy mamlakatlar hamda tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan ilmiy grant-loyhalari tanlovlarida ishtirok etishlari solmog‘ini oshirish bo‘yicha barcha kafedralar o‘z takliflarini kiritsinlar.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘iZ.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.2. Universitetning barcha bakalavriat, magistratura hamda klinik ordinatura talabalariga Start-ap loyihalarida faol qatnashishlari, professor-o‘qituvchilar tomonidan ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha barcha shart-sharoitlar yaratilib berilishi ta’minlansin. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi shaxsan kafedra mudirlari nazoratida bo‘lishi ta’kidlab o‘tilsin.

Mas’ul: kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.3. Universitet professor-o‘qituvchilarining tomonidan chop etilgan ba’zi maqolalarni vaqt o‘tishi bilan xalqaro bibliografik bazalar (Web of Science, Scopus, ayniqsa Google Scholar)dan chiqib ketishini oldini olish maqsadida maqolalarga iqtiboslikni sun’iy ravishda oshirilishi, shuningdek, h-index ko‘rsatkichlarini sun’iy ko‘tarilishini oldini olish va bunday harakatlar to‘xtatilishi ta’minlansin. Ta’kidlab o‘tilsinki bunday holatlar shaxsan kafedra mudirlari tomonidan nazorati kuchaytirilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.4. Universitetda ta’lim olayotgan doktorant va mustaqil izlanuvchilarning o‘z muddatida himoya qilishlari uchun xisobotlarni yilning har chorakida fakultet kengashlarida tahlili o‘tkazilishi kuchaytirilsin, ularning natijasiga ko‘ra taaluqli xulosalar hamda zarur bo‘lgan moddiy yordam ko‘rsatilishi, shuningdek, o‘z vaqtida himoyasini amalga oshirilmagan doktorantlar va ilmiy rahbarlariga moddiy rag‘batlantirishdan cheklantirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘iZ.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.5. Doktorant va mustaqil izlanuvchilar institutiga kirish imtihon natijalaridan qat’i nazar dissertatsiya mavzusi kafedra va Muammoli kengash muhokamasidan o‘tgan, aynan shu mavzu bo‘yicha PhD ilmiy darajasi uchun 1 ta maqola va 2 ta tezis, DSc ilmiy darajasi uchun 2 ta maqola va 2 ta tezis chiqargan izlanuvchilarni qabul qilinishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘iZ.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.6. Universitetning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy darajasi bo‘lmagan professor-o‘qituvchilarning dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ularni mustaqil izlanuvchilik institutlariga kirishi to‘liq ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘iZ.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026- o‘quv yili davomida.

1.7. Universitet professor-o‘qituvchilari, shuningdek doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti izlanuvchilari tomonidan Scopus bazasida chop etiladigan maqolalar soni va sifatini oshirish bo‘yicha ishlar kuchaytirilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘iZ.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

1.8. Doktorantura va mustaqil izlanuvchilarning mavzularini tanlash va Universitet Ilmiy kengashiga tasdiqlash uchun olib chiqishda ilmiy rahbar, Muammoli ha’atlar raislari va a’zolarining javobgarligi ta’kidlab o‘tilsin va nazoratga olinsin, dissertasiya mavzulari tibbiyotning hozirgi kundagi dolzarb muammolariga bag‘ishlanishiga alohida e’tibor qaratilsin. Muammoli hay’atlarida doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy ishlarini bosqichma-bosqich bajarilishi natijalari tanqidiy tahlili muhokamasini davriy ravishda amalga oshirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova,Muammoli ha’at raislari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026- o‘quv yili davomida.

1.9. Barcha fakultet kafedralarining ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida har bir xodimning ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi kuchaytirilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i J.B.Sattorov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026- o‘quv yili davomida.

1.10. Universitetning iqtidorli talabalarini saralash maqsadida ularni fanlar kesimida mahalliy va xorijiy olimpiada va konferentsiyalarda ishtirokini ta’minlash, nufuzli o‘rinlarni egallashda hamda nomdor stipendiyalarga nomzodlarni tayyorlashda ishlar davom etilishi va kuchaytirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘iZ.A.Muminova, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqit faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i Z.K.Karimova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025/2026-o‘quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Oftalmologiya kafedrasining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy faoliyati bo‘yicha hisoboti” mavzusi bo‘yicha Oftalmologiya kafedrasi mudiri Bilalov Erkin Nazimovichнинг ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-metodik ta’minot bulimi boshlig‘i Anvarov Jaxongir Abralovich, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (1-va 2-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

4. Turli masalalar bo‘yicha Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova so‘zga chiqdilar.

4.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502-sonli qaroriga muvofiq Toshkent davlattibbiyot universitetida ta’sis etilgan **“Zulfiya va Berdaq nomidagi maxsus stipendiyasi” uchun** 2026-yil fevral oyida o‘tkazilgan tanlov yakuniga ko‘ra g‘olib bo‘lgan quyidagi talabalarga:

Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya:

-1-son davolash fakulteti 1d21-16a-guruhi talabasi **Abdulazizova Havasxon Alisher qizi;**

- 2-son davolash fakulteti 408-guruhi talabasi **Shadmonqulova Diyora Bobur qizi;**

- 3-son davolash fakulteti 402-B-guruhi talabasi **Salohiddinova Rushana Kamoliddinkhon qizi;**

- Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OHI fakulteti ft02-guruhi talabasi **Madaminova Sevara Murodjon qizi;**

- Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti 402-guruh talabasi **Tosheva Shoxida Ximmat qizi;**

Berdaq nomidagi maxsus stipendiya:

- 1-pediatriya fakulteti 1p22-07-guruhi talabasi **Pardayeva Fotima Sobirjon;**
- 2-pediatriya fakulteti 424-guruhi talabasi **Norbo‘taeva Muxlisa Jasur**;
- Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti 316-guruhi talabasi **Sobirova Aziza Jaloliddin qizi;**
- Tibbiy pedagogika, stomatologiya va pediatriya fakulteti stom 24-202a - guruhi talabasi **Mamasoatov Ozodbek Shamsiddin o‘g‘li**ga -
- 2026-yil sentabr oyidan boshlab 2027-yil 30-iyunga qadar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori 2-ilovasining 2-bandiga muvofiq maxsus stipendiya to‘lanishi ta’minlansin.

4.2. Toshkent davlat tibbiyot universitetining **“Zulfiya va Berdaq nomidagi ko‘krak nishoni” uchun** 2026-yil fevral oyida o‘tkazilgan tanlov yakuniga ko‘ra g‘olib bo‘lgan quyidagi talabalarga:

Zulfiya nomidagi ko‘krak nishoni:

- 2-son davolash fakulteti 320-guruhi talabasi **Abdumannonova Xidoyatxon G‘anisher qizi;**
- 1-pediatriya fakulteti 1p22-15-guruhi talabasi **Rasulova Sarvinoz Sanjar qizi**;
- Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti 527-guruhi talabasi **Ergasheva Dilyora Muxammadjon qizi;**
- Tibbiy pedagogika, stomatologiya va pediatriya fakulteti stom 24-204a - guruh talabasi **Ro‘zimboyeva Durdona Sharifovna**;
- Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligifakulteti 206-guruh talabasi **Turg‘unpo‘latova Muqaddam Qodirjon qizi;**
- Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OHI fakulteti ft02-guruh talabasi **Madaminova Dinora Ulugbek qizi;**
- 1-son davolash fakulteti 1d20-07c-guruh talabasi **Xusanova Shaxrizoda Sherzod qizi;**

Berdaq nomidagi ko‘krak nishoni:

- 1-son davolash fakulteti 1d22-08a-guruhi talabasi **Nosirova Sevinch Faxriddin qizi;**
- 2-pediatriya fakulteti 220-guruhi talabasi **Davletbaeva Aysanem Alisherovna**;
- 1-son davolash fakulteti 112-guruhi talabasi **Abdumannonova Zarina Sherzod qizi;**
- Magistratura Patologik anatomiya yo‘nalishi 2-bosqich magistri **Sayfiddin Hoji Qadriddin Shuhrat o‘g‘li**ga

ToshDavTUning Zulfiya va Berdaq nomidagi ko‘krak nishoni va guvohnomasi topshirilsin va bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir marta to‘lanadigan pul mukofoti bilan taqdirlanishi ta’minlansin.

4.3. Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilishda Toshkent davlat tibbiyot universiteti bilan uzoq yillardan buyon Zulfiyaxonim ijodini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishda va yoritishda samarali hamkorlik qilib kelayotgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira

Muxtarama Ulug‘ovaga Universitetning Zulfiya nomidagi ko‘krak nishoni topshirilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i A.A.Suvanov, Bosh hisobchi X.Mardonov.

Muddat: 2025/2026 o‘quv yili mart oyi va 2026/2027 o‘quv yili davomida.

4.4. Atoqli olim va ustoz akademik O‘.A.Aripovning xotirasini abadiylashtirish yuzasidan uning 100-yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar rejasi bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i A.A.Suvanov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-o‘quv yili iyun oyi.

4.5. Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 5–dekabrdagi “Etika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 319-son buyrug‘iga asosan Toshkent davlat tibbiyot universiteti qoshidagi Mahalliy Etika qo‘mitasi tashkil qilinsin, Nizomi va tarkibi (ilovaga muvofiq) tasdiqlansin.

4.6. Toshkent davlat tibbiyot universiteti Bolalar xirurgiyasi, urologiya, bolalar urologiyasi, anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasi mudiri, dotsent Raxmatullaev Akmal Abadbekovich rahbarligida “Bolalarda surunkali qabziyat bilan kechuvchi dolixosigma kasalligini erta tashxislah va davolashda zamonaviy yondashuv” nomli 2026-yil amaliy tadqiqot loyihalar tanloviga 2 yilga mo‘ljallangan 125-son, maqsadli loyihasi bilan ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

4.7. Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi tayanch doktoranti N.Q. Abdullayeva rahbarligida Immunologik va genetik markerlar asosida megaloblast anemiyani erta tashxislash mezonlarini ishlab chiqish” nomli grant loyihasi 6-oylik oraliq hamda yakuniy hisobotlarini Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etishga tavsiya etilsin.

4.8. 1-son Stomatologiya fakultetining Gospital terapevtik stomatologiya kafedraning tayanch doktoranti, N.F.Mirzaxodjayeva rahbarligida “Anemiya bilan xastalangan bemorlarda angular xeylitni rivojlanishida immun-mikrobiologik o‘zgarishlarni tahlil qilish” nomli grant loyihasi 6-oylik oraliq hamda yakuniy hisobotlarini Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etishga tavsiya etilsin.

4.9. Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi mudiri, professor Z.Ch.Kurbonova rahbarligida “Qoraqalpoq populyatsiyasi aholisida asoratlangan pankreatitlarni yangi laborator (kengaytirilgan immunogramma) tashxislash va davolashning miniinvaziv uslublarini ishlab chiqish” nomli loyihasi tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

4.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61 son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: IS52807479

vazirining 2025-yil 21-noyabridagi 443-son “Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘iga muvofiq hamda Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabalari va ularning ota onalaridan kelgan murojaatlarni hisobga olgan holda, Toshkent davlat tibbiyot universitetining bakalavriat, magistratura va ordinatura talabalarining belgilangan to‘lov-kontrakt miqdorining kamida 75 foizini to‘lash muddatini 2025-yilning 15-apreligacha uzaytirishga ruxsat berilsin.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**